



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TRANSFORMATSIYA QILISH: SUN'IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRISHNING TA'SIRI

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali professor o'qituvchisi

Berdiqulova Sevinch Toxir qizi

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali 3-bosqich talabasi

Ismoilova Intizor Mansurbek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruv tizimlarining transformatsiyasi, shuningdek, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining boshqaruv jarayonlariga ta'siri tahlil qilinadi. Zamonaviy korxonalar faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish qaror qabul qilish tezligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qilmoqda. Maqolada korporativ boshqaruvning an'anaviy modeldan raqamli modelga o'tish jarayoni, uning afzalliklari hamda yuzaga kelayotgan muammolar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, PwC, World Economic Forum, Deloitte, Generativ SI, UNDP, AKT.

Abstract: This article analyzes the transformation of corporate governance systems in the digital economy, as well as the impact of artificial intelligence and automation technologies on management processes. The introduction of digital technologies in the activities of modern enterprises serves to increase the speed of decision-making, efficient use of resources and optimization of management processes. The article discusses the process of transition of corporate governance from a traditional model to a digital model, its advantages and emerging problems.



Keywords: Artificial intelligence, PwC, World Economic Forum, Deloitte's Generative SI, UNDP, ICT.

Аннотация: В данной статье анализируется трансформация систем корпоративного управления в цифровой экономике, а также влияние искусственного интеллекта и технологий автоматизации на управленческие процессы. Внедрение цифровых технологий в деятельность современных предприятий способствует повышению скорости принятия решений, эффективному использованию ресурсов и оптимизации управленческих процессов. В статье рассматривается процесс перехода корпоративного управления от традиционной модели к цифровой, его преимущества и возникающие проблемы.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, PwC, Всемирный экономический форум, Generative SI от Deloitte, ПРООН, ИКТ.

Kirish. So‘nggi o‘n yillikda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan eng muhim o‘zgarishlardan biri bu raqamli iqtisodiyotning tez sur‘atlar bilan rivojlanishidir. Internet texnologiyalari, sun‘iy intellekt, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, katta ma‘lumotlar (Big Data) va bulutli hisoblash kabi innovatsiyalar iqtisodiy jarayonlarning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, korporativ boshqaruv tizimlari ushbu jarayonlardan eng ko‘p ta’sirlanayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. An‘anaviy korporativ boshqaruv asosan inson omiliga, tajriba va klassik boshqaruv usullariga tayangan bo‘lsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida qaror qabul qilish jarayonlari tobora avtomatlashtirilgan va ma‘lumotlarga asoslangan tizimlarga o‘tmoqda. Sun‘iy intellekt texnologiyalari korxonalarda strategik va operatsion qarorlarni qabul qilishda muhim vositaga aylanib, menejerlarga katta hajmdagi ma‘lumotlarni tezkor tahlil qilish imkonini bermoqda.



Bundan tashqari, avtomatlashtirish jarayonlari ishlab chiqarish, moliyaviy boshqaruv, logistika va marketing kabi sohalarda inson omilini kamaytirib, xatoliklarni qisqartirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya korporativ boshqaruvning tuzilmasi, funksiyalari va boshqaruv madaniyatini ham tubdan o'zgartirmoqda. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda global bozorda raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun korxonalar raqamli texnologiyalarni joriy etishga majbur bo'lmoqda. Shu sababli, sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning korporativ boshqaruvga ta'sirini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Raqamlashtirish jarayonlari tez sur'atlarda rivojlanayotgan zamonaviy iqtisodiyotda sun'iy intellekt texnologiyalarini asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylantirmoqda. Sun'iy intellekt iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish va qaror qilishni optimallashtirish orqali mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshiradi hamda resurslardan (energiya, xom ashyo, vaqt) samarali foydalanishni ta'minlaydi. McKinsey Global Institute ma'lumotlariga ko'ra generativ sun'iy intellekt 2040-yilga borib, yillik mehnat unumdorligini 0.1—0,6% ga oshirishi mumkin. PwC ning 2025-yilgi Global AI Jobs Barometer hisobotida esa sun'iy intellekt ta'siridagi sohalarda daromad o'sishi 3 baravar tezlashgani qayd etilgan. Sun'iy intellekt raqamlashtirishni yangi bosqichga olib chiqib, biznes jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda.

Mashinaviy o'qitish algoritmlari katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qilib, bashoratli modellar yaratadi, bu esa ishlab chiqarish, logistika va xizmat ko'rsatishda samaradorlikni oshiradi. Masalan, Amazon kompaniyasi Amazon Robotics (sobiq Kiva) orqali ombor jarayonlarini avtomatlashtirib, buyurtma tayyorlash vaqtini 60—70 daqiqadan 15 daqiqagacha qisqartirdi (75—80% samaradorlik o'sishi) va operatsion xarajatlarni 20% kamaytirdi. Siemens esa prediktiv texnik xizmat ko'rsatish tizimlarini joriy etib, uskunalarning ishlamay



qolishini 20% kamaytirdi. World Economic Forumning 2025-yilgi “AI in Action” hisobotida SI sanoat transformatsiyasini tezlashtirishi, jumladan, resurslarni optimallashtirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlashi ta’kidlangan. Deloitte’ning Generativ SI holati bo’yicha 2024-2025 hisobotlarida korxonalar sun’iy intellektni investitsiyalarning 70% dan ortig’ini yo’naltirayotgani ko’rsatilgan.

Sun’iy intellekt mehnat unumdorligini oshirishda asosiy vosita bo’lib, takroriy vazifalarni avtomatlashtiradi va ijodiy faoliyatga vaqt ajratadi. Standard HAI’ning 2025 AI Index Reportga ko’ra, 2024-yilda korxonalarning 78% sun’iy intellektni qo’llagan, bu avvalgi yilga nisbatan 23% o’sish. McKinsey 2025-yilgi so’rovida yuqori samarali kompaniyalar sun’iy intellekt orqali xarajatlarni kamaytirib, innovatsiyalarni 80% tezlashtirgani aniqlangan. Statistika ko’ra, sun’iy intellekt ishchilarning haftalik vaqtini 5,4% tejaydi, bu umumiy unumdorlikni 1,1—40% oshirishi mumkin. Goldman Sachs bashoratida esa Sun’iy intellekt rivojlangan mamlakatlarda mehnat unumdorligini 15% ga ko’taradi. O‘zbekistonda Taraqqiyot Strategiyasi Markazi ma’lumotlariga ko’ra, sun’iy intellekt ni joriy etish 2030-yilga borib innovatsion iqtisodiyotni shakllantiradi. Sun’iy intellekt resurslarni optimallashtirishda bashoratli analitika va IoT integratsiyasidan foydalanadi. Masalan, energiya sarfini 15—25% kamaytirish orqali barqarorlikni ta’minlaydi. UNDP’ning O‘zbekiston raqamli iqtisodiyoti bo’yicha hisobotida sun’iy intellekt ekotizimi qurish muvaffaqiyatli qadam deb baholangan.

O‘zbekistonda 2030-yilga mo’ljallangan sun’iy intellekt strategiyasi iqtisodiy tarmoqlarda (qishloq xo’jaligi, sanoat) raqamlashtirishni nazarda tutadi. Masalan, qishloq xo’jaligida sun’iy intellekt dronlar va sensorlar orqali suv resurslarini 30% tejaydi. Biroq, xavfli tomonlari ham bor, ya’ni McKinsey ma’lumotlariga ko’ra, sun’iy intellekt ish o’rinlarining 17% qisqarishiga olib kelishi, shuningdek, etik muammolar (ma’lumotlar xavfsizligi, bias) va malaka yetishmasligi va boshqalar.



Ta'kidlash joizki, sun'iy intellektni ijtimoiy va boshqa sohalarga joriy qilishda shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligi, ularni saqlash va boshqarish muhim ahamiyatga ega. Chunki, sun'iy intellektdan foydalanishning axloqiy jihatlari, ayniqsa, AQSh, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar va yetakchi xalqaro tashkilotlar diqqat markazida bo'lib, inson huquqlari va shaxsiy ma'lumotlar masalasi hamda sun'iy intellektdan siyosiy va buzg'unchi maqsadlarda foydalanish xavfi dolzarb hisoblanadi. Ayrim davlatlar, xususan, Xitoy va Rossiyada sun'iy intellekt va AKTdan fuqarolar shaxsiy huquq va erkinliklarini cheklash va siyosiy maqsadlarida foydalanilmoqda, degan ayblovlar yangramoqda. Shuning uchun sun'iy intellektdan foydalanishning huquqiy asoslarini yaratishda bu masalalarga ham alohida e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. Sun'iy intellekt iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish orqali mehnat unumdorligini va resurslar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Global tendensiyalar va O'zbekiston strategiyasi Sun'iy intellektni o'sishning asosiy omili sifatida baholamoqda.

Raqamli transformatsiya sharoitda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta'lim, tibbiyot, bandlik, qishloq ho'jaligi, mudofaa, xavfsizlik, turizm va boshqa sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Qayd etish joizki, "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da axborot texnologiyalari va raqamlashtirish borasida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilib, bir qator muhim dasturlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatimizda raqamlashtirishni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishga qaratilgan.



O'zbekistonda ham axborotlashtirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali 2030 yilga qadar innovatsion taraqqiy etgan yetakchi davlatlar qatoridan o'rin egallash ustuvor vazifa sifatida belgilangan, sun'iy intellektni rivojlantirish milliy strategiyaning muhim qismiga aylangan. 2024-yil 14-oktabrdagi Prezident qarori (PQ-358) bilan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlangan bo'lib, u raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsiyalarni joriy etishni nazarda tutadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruv tizimlarining transformatsiyasi zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning ajralmas va muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining keng joriy etilishi korxonalar boshqaruv tizimlarini tubdan o'zgartirib, ularni yanada tezkor, aniq va samarali ishlashga olib kelmoqda. Bugungi kunda korporativ boshqaruv faqat inson qarorlariga emas, balki algoritmlar, ma'lumotlar tahlili va avtomatlashtirilgan tizimlarga ham tayanmoqda. Bu esa strategik rejalashtirish, risklarni boshqarish va resurslarni taqsimlash jarayonlarida katta qulayliklar yaratmoqda. Natijada korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni yuqori darajaga ko'tarish imkoniga ega bo'lmoqda. Shu bilan birga, ushbu transformatsiya jarayoni bir qator muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, kiberxavfsizlik xavflari, texnologik infratuzilmani moslashtirish zarurati, xodimlarning yangi texnologiyalarga moslashuvi va raqamli savodxonlik darajasini oshirish kabi masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu esa korxonalardan faqat texnologik emas, balki strategik va tashkiliy yondashuvni ham talab qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdumuminovna I. S. The main ways to ensure the economic security of industrial enterprises in the digital economy //JournalNX. – 2023. – T. 9. – №. 1. – С. 29-33.



2. Ibragimova S., Bakhodirova K. Formation of investment activities of energy enterprises //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 461. – С. 01074.
3. Ibragimova S., Abdulazizov F. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ МОДЕЛЕЙ МЕХАНИЗМА КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ //Interpretation and researches. – 2025. – №. 1 (47).
4. Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). *Artificial Intelligence for the Real World*. Harvard Business Review.
5. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). *The Business of Artificial Intelligence*. MIT Sloan Management Review.
6. Laudon, K. C., & Laudon, J. P. (2020). *Management Information Systems: Managing the Digital Firm*. Pearson Education.
7. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2015). *How Smart, Connected Products Are Transforming Companies*. Harvard Business Review.
8. □ OECD (2021). *The Digital Transformation of Business and Management*. Organisation for Economic Co-operation and Development.